



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 25-iyul, seshanba,
88 (23.809)-son

**KUN
HIKMATI**

Ulug'larning
ulug'ligi ularda
ilm olishga
intilish ehtiyojga
aylanganidir

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz

Xalq deputatlari viloyat Kengashining
Q A R O R I

Samarqand viloyatida 2023-2024-yillarda sement-beton qoplamali ichki yo'llarni qurish bo'yicha manzilli ro'yxatlarni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi "Sement-beton qoplamali avtomobil yo'llari tarmog'ini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-249-sonli qaroriga muvofiq, viloyatning ichki xo'jalik yo'llarini rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini tashkil qilish maqsadida xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq sakson sakkizinchi sessiyasi **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi "Sement-beton qoplamali avtomobil yo'llari tarmog'ini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-249-sonli qarori bilan Xalqaro moliya institutlari ishtirokida seMENT-beton yo'llarni qurish bo'yicha shahar va tuman sektor rahbarlari tomonidan taqdim etilgan manzilli ro'yxatlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalqaro moliya institutlari ishtirokida 2023-2024-yillarda Samarqand viloyatida seMENT-beton yo'llarni qurish ishlarining manzilli ro'yxati (keyingi o'rinlarda — manzilli ro'yxat) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimining o'rinbosari (A.Shukurov), viloyat avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmasi (A.O'roqov) buyurtmachi tashkilot "Avtoyo'linvest" agentligi (Z.Ismatullayev) bilan birgalikda manzilli ro'yxatga kiritilgan obyektlarda seMENT-beton yo'llarni qurish ishlarini belgilangan muddatda sifatli bajarilishini ta'minlasin.

4. Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (M.Ibodullayev), viloyat televideniyesi (M.Ixtiyorov), "Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalarini birlashgan tahririyati (F.Toshev), "Овози Самарқанд" gazetasi (B.Rahmonov)ga dastur ijrosi yuzasidan olib borilayotgan ishlarni doimiy ravishda ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (O'.Saidmuradov) va viloyat hokimining o'rinbosari (A.Shukurov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

Z.KARIMOV

2023-yil 21-iyul

Qaror ilovasi bilan gazetamizning Zarnews.uz sayti orqali tanishishingiz mumkin.



KOREYA RESPUBLIKASI BANDLIK VA MEHNAT VAZIRI

kasb-hunar markazlari faoliyati bilan tanishdi

O'zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelgan Koreya Respublikasi Mehnat va bandlik vaziri Li Jung Sik rahbarligidagi delegatsiya Samarqand shahrida bo'ldi.

Mehmon dastlab Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri o'rinbosari Ra'no Turdiboyeva ishtirokida Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) hamkorligida Samarqand shahrida tashkil etilgan kasb-hunar o'qitish markazining faoliyati bilan tanishdi.

Kasb-hunar markazida bugungacha uch ming

nafardan ortiq yoshlar axborot texnologiyalari, avtomobillarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish, elektronika va asbobsozlik, payvandlash va chilangarlik ishlari, kompyuter grafikasi va multimedia tizimlari yo'nalishlarida kasb o'rganib, turli korxonalarda o'z mutaxassisliklari bo'yicha ishlayapti.

- Koreya xalqaro hamkorlik agentligi ishtirokida tashkil etilgan kasb-hunar markazlari O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorligimizga mustahkam poydevor bo'ldi, deydi Li Jung Sik. - Bugungacha O'zbekistonda

4 ta ana shunday markaz faoliyat yuritayapti. Kelajakda bu yo'nalishda hamkorlik yanada kengaytiriladi.

Delegatsiya a'zolari Samarqand shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazida ish bilan band bo'lmagan fuqarolarga kasb-hunar o'rganishlari uchun yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlar bilan qiziqdi. Markazda ishsiz fuqarolar qisqa muddatlarda kasb-hunarga va tadbirkorlikka bepul o'qitilayotganini yuqori baholadi.

**Sulaymon MARDIYEV,
Husan ELTOYEV (surat).**

"QIZILBOSH"

endi

"IPAK YO'LI"

deyiladi



Gap Urgutning Omonqo'ton mavzesidagi ko'hna qishloq haqida bormoqda. Bir paytlari Buyuk Ipak yo'lidagi bekatlardan hisoblangan bu qishloqqa mahalla faollarining talabi bilan shunday nom qo'yildi. Yangi yildan buyon viloyat hududidagi 20 ta qishloq va joylarga ana shunday nomlar berildi.

- Bundan tashqari, 5 mingdan ortiq nomsiz geografik obyektlarga nomlar berildi, - deydi viloyat hokimining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish Davlat tili to'g'risidagi Qonun hujjatlariga rioya etishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi Sh.Temirov. - Ayniqsa, shahar va tuman markazlaridagi katta ko'chalar nomlari tartibga keltirildi. Endi ularga bevosita tutash ixcham ko'chalar alohida nomlanmaydi, balki "tor ko'cha", "berk ko'cha" sifatida raqamlanadi.

Urgut tumanida tuman va shahar hokimlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, Davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchilarining seminarida ana shu ma'lumotlar keltirib o'tildi. Darvoqe, har bir ko'cha va mahalla nomi o'zgartirilishi jarayonida bu takliflar umumxalq muhokamasiga qo'yilgan hamda mahalliy kengashlarning sessiyalarida tasdiqlangan. Viloyat bo'yicha 5052 ta geografik obyekt (4826 ta ko'cha, 2 ta mahalla, 2 ta maydon, 5 ta istirohat bog'i, 8 ta ziyoratgoh, 209 ta qabriston) nomlari ana shu tarzda o'zgartirilib, davlat reestriga kiritilgan. Shuningdek,

8624 ta tashqi reklama vositalaridan 5477 tasi olib qo'yilgan va tadbirkorlik subyektlariga mahsulotni targ'ib etishda "Davlat tili haqida"gi Qonun talablariga amal qilishlari tushuntirilgan. Seminar-da "O'zbek tilining izohli lug'ati" (olti jild), "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati" (ikki jild), "O'zbek xalq so'zlari", "O'zbek tilining katta imlo lug'ati", "O'zbek tili frazeologik lug'ati", "O'zbek xalq paremlarining sinonimik izohli lug'ati", "Novvoychilik terminlarining izohli lug'ati", "Axborot texnologiyalari atamalarining izohli lug'ati" kitoblari taqdimoti ham bo'lib o'tdi.

Ta'kidlanishicha, "O'zbek tilining katta imlo lug'ati"da so'z va terminlar avvalgilarga qaraganda kengroq sharhlangan hamda kiril va lotin yozuvlaridagi tafovutlar aniq ko'rsatilgan. Misol uchun, ilgari "сентябрь", "октябрь" so'zlari lotin alifbosida qo'llanganda ham qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatilgan. Aytish joizki, viloyatdagi 256 ta boshqarma, tashkilot va idorada ish yuritish lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida olib boriladi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Samarqand dunyo nigo-hidagi shaharga aylanib bormoqda. Jahonning nufuzli tashkilotlari inson umri davomida bir marotaba bo'lsa ham borib ko'rish kerak bo'lgan 50 ta shahar ichida Samarqandning ham e'tirof etilgani dunyo tamadduniga beshik bo'lgan shahrimiz uchun berilgan eng yaxshi ta'riflardan biri bo'ldi. Qadim kentni ko'rish orzusidagi insonlar kun sayin ortib borayotgani ham bejiz emas. Ammo biz xorijiy sayyohlarni ko'proq jalb qilish, turizmni rivojlantirish haqida gapiryapmiz-u, lekin ba'zan ular uchun zarur infratuzilmani yaratolmayapmiz. Sayyoh yurtimizga eshitgani bilan keladi, ko'rgani bilan esa xorijliklar fikrini shakllantiradi.



YO'L O'RTASIDAGI QUDUQLAR

Ularni kim, qanday quradi, kim nazorat qiladi?

Ichimlik suvi, elektr, tabiiy gaz, internetni qo'yib turaylik, yo'llarning sifatini ham qo'yib qanday yangi ta'mirlangan yo'llardan ketayotganingizda yo'lining o'rtasida asfaltidan baland yoki aksincha holatda o'rnatilgan quduq (колодез)larga duch kelasiz. Gohida o'sha quduqlarning qopqog'i ham bo'lmaganidan shox-shabba, eski shina va boshqa shunga o'xshash jihozlar qo'yilgan bo'ladi. Bu bizning qanchalik "kuyunchak", "tejamkor" yoki "e'tiborli" ekanligimiz, soha mutaxassislari o'z kasbida qanchalik "uddaburon" ekanligini anglatadimi?

Bir nechta jonkuyar mushariylarimiz avtomobil yo'llaridagi ochiq turgan quduqlar, o'zi aslida bunday quduqlarni qaysi tashkilotlar va qanday tartibda o'rnatishi, nega ishlar doim chala qoldirilishi bo'yicha murojaatlar qilishdi. Shu bois mushariylarimizning savollariga javob topish va bu borada maqola tayyorlash maqsadida soha taalluqli bo'lgan Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i (Y.Bobonazarov), viloyat "Suvoqova" davlat unitar korxonasi rahbari (K.Yusupov) va viloyat avtomobil yo'llari hududiy boshqarmasi boshlig'i (A.Uroqov) ga murojaat qildik. Bilishimizcha, avtomobil yo'llari o'rtasidagi quduqlarning ayrimlari "Telekom" va "Hududgaz" idoralariga tegishli ekan. Tabiiyki, bir idoraning qudug'iga boshqasi tegmaydi.

Nima bo'lganda ham rasmiy xat orqali qilingan murojaatimizga ikki haftadan ortiq vaqt o'tsa hamki, birorta tashkilot javob bergani yo'q. Vaholanki, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonunga ko'ra, "Ommaviy axborot vositasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rov bilan ularga og'zaki yoki yozma shaklda (shu jumladan, elektron hujjat shaklida) murojaat etish huquqiga ega.

Ommaviy axborot vositasining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati to'g'risida axborot olishga doir, shuningdek mansabdor shaxslarning intervyusini tashkil etish to'g'risidagi so'rovi ko'pi bilan yetti kun muddatda ko'rib chiqiladi.

Agar ommaviy axborot vositasining so'rovini ko'rib chiqish davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlari jumlasiga kirmasa, so'rov so'ralayotgan axborotni taqdim etish o'zining vakolatiga kiritilgan organga ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida yuboriladi, ommaviy axborot vositasi esa bu haqda xabardor qilinadi.

So'rov rad etilgan taqdirda, ommaviy axborot vositasiga asoslanirilgan javob yuboriladi", deyilgan.

Bu tashkilotlar esa ikki hafta davomida rasmiy murojaatga e'tibor ham qaratishmagan ko'rinadi. Yoki ular mas'uliyatni bo'yinga olishni ep ko'rishmayaptimi? **O'.XUDOYBERDIYEV.**

Luqma

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yilning 15-may kuni o'tkazilgan kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda yangi bosqichga o'tish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida 2023-yilning 1-iyunidan boshlab "20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis" dasturini amalga oshirish belgilangan va bu borada mutasaddi vazirlik va idoralar, hokimliklarga bir qator vazifa hamda topshiriqlar berilgan edi.

"20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis"

dasturi Samarqandda qanday amalga oshirilyapti?



Ushbu videoselektordagi topshiriqlar ijrosi yuzasidan Samarqandga kelgan kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri Behzod Musayev soha mutasaddilari ishtirokida viloyatda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishdi.

Dastlab vazir Samarqand shahridagi mahalla o'quv markazi-da bo'ldi.

Bugungi kunda mazkur o'quv markazga ilmiy darajasi, zamonaviy pedagogik malakasi, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari yuqori bo'lgan 32 nafar amaliyotchi mutaxassislar jalb qilingan. 2022-2023-o'quv yilida 675 nafar o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasi oshirildi. Uchrashuv davomida B.Musayev markaz faoliyatini kengaytirish, xususan, hokim yordamchilari va xotin-qizlar faollarini ham qayta o'qitish va malakasini oshirishni yo'lga qo'yish taklifini bildirdi.

Shuningdek, ishchi guruh Samarqand shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazida bo'lib, markaz faoliyatini o'rgandi. 24 ta kasb-hunarga o'qitish yo'lga qo'yilgan markazda mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil qilish samara berishini ta'kidladi.

- Xizmat ko'rsatish markazlari tashkil etish uchun barcha sharoitlar mavjud, - deydi "Ishga marhamat" monomarkazi direktori Dilshod Pardayev. – Muhimi, bu

bilan shu yerning o'zida ko'p sonli fuqarolar bandligini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Qolaversa, yoshlarda hunar o'rganishga bo'lgan qiziqish va ishtiyoq oshadi.

Shundan so'ng vazir boshchiligidagi mutasaddilar "20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutaxassis" dasturi doirasidagi ishlar bilan tanishish maqsadida Navro'z mahallasida joylashgan "Azia metall prof" MCHJning metal quvur va profilar ishlab chiqarish korxonasida bo'ldi. Bu yerda 150 nafar ishsizni o'qitish orqali amaliy monomarkaz tashkil qilish masalalari muhokama qilindi.

Navbatdagi manzil Davlatshoh Samarqandiy mahallasida joylashgan "Samarqand apparel" MCHJ bo'ldi. Korxonada tashkil etilgan ishlab chiqarish loyihalari tekstil va trikotaj mahsulotlari bilan tanishib, xorijiy mutaxassislar bilan mahsulot ishlab chiqarish va brending bo'yicha ishlashning afzalliklari yuzasidan o'z takliflarini bildirdi. Shuningdek, Samarqand tumani-dagi "Navobod naslli parranda" fermer xo'jaligida yangi ish o'rinlari yaratilish imkoniyatlari o'rganildi. Korxonada kelgusida yana 100 nafar ishsizlar bandligini ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

B.Musayev davlat dasturi bo'yicha korxonalarda bandligi ta'minlanmagan yoshlarni kasbga o'qitish bo'yicha amaliy monomarkaz tashkil etish yuzasidan kerakli tavsiylar berdi.

S.MARDIYEV.

Samarqand shahridagi "Ishga marhamat" monomarkazida elektromobil ustasi, veb-dizayner, quyosh panellari mutaxassisi kabi yangi va zamonaviy yo'nalishlar tashkil etiladi.

Bu haqda monomarkazda viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh bosh-qarmasi tomonidan ish bilan band bo'lmagan aholini kasbga tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha tashkil etilgan press-turda ma'lumot berildi.

Ma'lumki, aholini ijtimoiy himoya qilish choralarinin muhim qismi bu ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash va ish bilan ta'minlashga ko'maklashish hisoblanadi. Ayni shu maqsadda 2021-yil may oyida Samarqand shahrida "Ishga marhamat" monomarkazi tashkil etilgan edi. Qisqa muddatda markazda 4157 nafar tinglovchi kasb-hunar o'rganib, o'z mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashgan, ma'lum qismi mustaqil ish faoliyatini yo'lga qo'ygan.

Markazda bugungi kunda 26 ta zamonaviy kasblar, 3 ta xorijiy tillar va tadbirkorlik ko'nikmalari bo'yicha kurslar tashkil etilgan. 2023-yilning olti oyida 1202 nafar fuqaro kasb-hunarga o'qitilgan bo'lsa, shundan 844 nafari xotin-qizlarni tashkil etadi. Muhim jihati, bu tinglovchilarning 60 nafardan ortig'i ijtimoiy daftarlarda turgan fuqarolar, 45 nafari nogironligi bo'lgan shaxslardir. Shuningdek, aholi bandligiga ko'maklashish markazlari tavsiyasi asosida 890 nafar tinglovchi o'qitilib, ularning 763 nafari bugun o'z sohasi bo'yicha ishlayapti.

- Markaz tashkil etilganida 13 yo'nalishda kasb-hunarga o'qitish yo'lga qo'yilgan edi, - deydi viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi rahbari Isroil Jabborov. – Hozirda 26 yo'nalishda tinglovchilar kasb-hunar o'rganmoqda. Bugunga kelib, zamonaviy kasblarga talab oshdi, kasb-hunar yo'nalishlariga ham mavjud talabdan kelib chiqqan holda

"ISHGA MARHAMAT" MONOMARKAZIDA

yangi yo'nalishlar tashkil etiladi

tinglovchilar qabul qilinaypti. Yaqin kelajakda bu yo'nalishlarni 30 taga yetkazishni reja qilganmiz. Xususan, elektromobil ustasi, SMM bo'yicha mutaxassis, veb-dizayner, quyosh panellari tashkil etiladi. Bu qo'shimcha ish o'rinlarining paydo bo'lishiga imkon yaratadi. Shuningdek, yurtimizda, xususan, viloyatimizda qurilish sohasi jadallik bilan rivojlanyapti. Butun boshli shaharchalar qurilayotgani ushbu yo'nalishda ham minglab ish o'rinlari yaratilishiga zamin bo'lmoqda. Hozirda Samarqand shahridagi Qorasuv massivi hamda Bulung'ur tumanida bunyod etilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivlarida ish beruvchilar bilan hamkorlik o'rnatib, qurilish ishlarida tajribasi bor, ammo ishsiz bo'lgan fuqarolarning bandiligini ta'minlayapmiz.

Jahon bankining aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini mustahkamlash loyihasi doirasida markazga xorijlik mutaxassislar



jalb qilinaypti. Xususan, oshpazlik, qandolatchilik, issiqxona texnologiyasi, kosmetolog, elektrik, maishiy uy-ro'zg'or elektrotexnik buyumlarini tuzatish ustasi kasb yo'nalishlari bo'yicha Turkiyadan 10 nafar malakali mutaxassislar jalb qilinib, amaliy darslar tashkil etildi.



E'tiborlisi, shu kungacha monomarkaz muhandis-ustalarining 24 nafari "World Skills" sertifikatini olib, ekspert maqomiga ega bo'ldi. Hamkor korxonalarda qo'shma dastur asosida kurslar tashkil qilindi. Joriy yil xorijiy tillar o'qitish bo'limida 240 nafar tinglovchi o'qitildi. Qariyalarni parvarishlash va qishloq xo'jaligi ishchisi yo'nalishlari bo'yicha 34 nafar

markaz bitiruvchilari bandligi ta'minlanmoqda. Press-turda ish beruvchi korxonalar vakillari ham ishtirok etdi. Ular bugungi bozor talablari, qaysi yo'nalishlarda mutaxassislarga talab oshayotgani bo'yicha o'z fikrlarini bildirdi.

- Yaqin vaqtgacha xodimlari-

mizni yangi paydo bo'layotgan sohalarga o'qitish uchun chet davlatlarga, hech bo'lmaganda, poytaxtga yuborishga majbur edik, - deydi "Xayrino ona fayz" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari Yodgor Nurmonov. – Hozirda viloyatimizda ham bu yo'nalishlar bo'yicha qayta tayyorlash kurslari ochilayotgani bizga qo'l kelyapti. Shu o'rinda taklifimni ham bildirdim. Har bir sohada yaxshi mutaxassis bo'lish bilan birga, mijoz bilan ishlash ko'nikmasi ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, iste'molchi bilan muomala-munosabatga kirishish, tovarni tavsiya qilishda zarur muloqot ko'nikmalariga ega bo'lish lozim. Markazda kasb-hunarga o'qitilayotgan tinglovchilarda ushbu ko'nikmalar bo'yicha tushunchalar berish uchun tajribali tadbirkorlar jalb etilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Press-tur davomida ishtirokchilar markazda tinglovchilarga kasb-hunar o'rganishlari uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, ular bilan muloqot qildi. Tinglovchilar keyingi ish faoliyatlarini yo'lga qo'yish bo'yicha boshqarma mutasaddilariga savollar berdi, amaliy ko'mak so'raganlar ham bo'ldi.

Boshqarma mutasaddilari savollarga atroflicha javob berdi.

O'z muxbirimiz.

BU FAKT!

Viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bo'yicha 2023-yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga ko'ra yuqori o'sish sur'atlari quyidagi hududlarda kuzatildi: Kattaqo'rg'on tumani – 2,8 marta, Past Darg'om tumani – 2,1 marta, Paxtachi tumani – 178,4 foiz, Toyloq tumanida 142,8 foizni tashkil etdi.

Samarqandda eksport qanchaga o'sdi?

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita ta'sir o'tkazadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi. Viloyatda bu borada keyingi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimal-lashtirish va umuman olganda, tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2022-yil yakuniga ko'ra viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2365,5 million AQSH dollariga yetdi. Ya'ni, 2021-yilga nisbatan 445,1 million AQSH dollariga yoki 23,2 foizga ko'paydi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasining oxirgi o'n yillik ma'lumotlarini tahlil qilib



qaraydigan bo'lsak, o'zgarishlar ancha katta ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2013-yilda 969,2 million AQSH dollarini, 2017-yilda esa 1101,6 million AQSH dollarini tashkil qilgan. 2022-yilda 2013-yilga nisbatan o'sish sur'ati 2,4 barobarga, 2017-yilga nisbatan esa 2,1 barobarga o'sgan.

Viloyat eksporti tahliliga ko'ra, 2013-yilda 257,5 million AQSH dollari, 2017-yilda 259,9 million AQSH dollari hamda 2022-yilga kelib, 636,6 million AQSH dollariga yetgan. O'sish sur'atiga qaraydigan bo'lsak, 2022-yilda 2017-yilga nisbatan 2,4 barobarga oshgan.

Viloyat eksportini mamlakatlarda bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, Afg'onistonga eksport 2013-yilda 653,3 ming AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2022-yilga kelib, 27424,5 ming dollariga yetgan. Shuningdek, Xitoy davlatiga 2013-yil 2442,7 ming dollar, 2022-yilga kelib, 42818 ming dollar, Qozog'istonga 36400,4 ming dollardan 111345,6 ming dollarga, Rossiya Federatsiyasiga 38423,5 ming dollardan 158319,5 ming dollarga, Tojikistonga 229,9 ming dollardan 68583,6 ming dollarga hamda Turkiyaga 21132,8 ming dollardan 67942 ming dollarga ko'paygan.

N.ABDIRAYIMOV, viloyat statistika boshqarmasi bo'lim boshlig'i.

Jinoyat va jazo

2 dona jangovar o'q-dori va 1 dona gilza

Uni olib kelgan kishining uch yil ozodligini cheklashga sabab bo'ldi

Ashraf (ism-familiyalar shartli) to'rt-besh yil hamqishloqlari bilan poytaxtdagi qurilish firmasida, mavsumiy ishlarda ishlab yurdi. Mao-shi ko'p bo'lmasa-da, ro'zg'orning kam-ko'stini butlab turgan edi. 2022-yil noyabr oyida Rossiyada ishlayotgan hamqishlog'i Rashid aka uni yonimda ish bor, puling bo'lmasa, yo'l xarajatlarini ham berib turaman, deb chaqirib oldi.

Hamqishlog'i va'da qilganidek uni aeroportda kutib olib, bir-ikki kun o'qib, yashash joyiga yaqin bo'lgan maktabdagi qurilish ishlariga joylashtirdi. Bir joyda ko'nim topmaydigan Ashraf bu yerda to'lanayotgan ish haqiga qanoat qilmadi. Yashash joyini ham o'zgartirib, uzoqroq hududdagi tosh maydalash zavodiga ishga kirdi.

2023-yil fevral oyining o'rtalari edi. Zavodga kelganiga hali ko'p bo'lmasa-da, bu yer ham unga xush kelmay yurgan paytlar edi. Bir kuni zavodga kiraverishda bino devorlari ostida 10 ga yaqin o'q-dori va ularning bo'sh gilzalari yotganini ko'rib qoldi. 2 dona jangovar o'q-dori va 1 dona gilzani, shimining cho'ntagiga solib qo'ydi. Ishdan so'ng yashash joyiga qaytgach, hamxonalariga topib olgan narsalarni ko'rsatdi. Ular bu zavod qo'riqchilariga tegishli bo'lishi mumkinligi, ertaga ularga qaytarib berishi lozimligini uqtirdi. Ashraf ularning gaplarini diqqat bilan eshitdi, ammo xo'p ham demadi, yo'q



ham. Topib olgan narsalarini harbiy kiyimga o'xshash shimining yon cho'ntagiga solib qo'ydi. Ertasiga yana odatdagidek o'z ishlariga sho'ng'ib, cho'ntagiga solgan narsalarni unutdi, sheriklari ham undan hech narsa so'ramadi.

Zavoddagi ish og'ir, maoshi esa uning o'ziga zo'rg'a yetib turgandi. Ishlari o'ngidan kelavermagach, mart oyining o'rtalarida Ashraf oilasi bag'riga qaytishni niyat qildi. O'ziga tegishli barcha kiyim

va buyumlarini yig'ishtirib, samolyotga chiqdi...

...O'sha kuni Sh.Hojiboyevning odatiy ish kunlaridan biri edi. Bugun ham maxsus rentgenda yo'lovchilarning qo'l yuklari va bagajlarini bojxona nazoratidan o'tkazayotgandi. Soat chamas to'rtlar atrofida "Domodedovo-Samarqand" yo'nalishida uchib kelgan yo'lovchilarning biriga tegishli bo'lgan bagajdagi buyumlarni ko'rib, hushyor tortdi. Hali egasi no'malum bo'lgan bagaj ichida o'qotar qurolning o'q-dorisi borligi rentgen apparati monitorida ko'rinib turardi. Shubhali yukning egasini aniqlash maqsadida unga alohida belgi qo'ydi. Barcha yuklarni o'tkazib bo'lgach, alohida belgili yuk egasini aniqlashtirib, yashil yo'lakdagi nazoratchiga xabar berdi.

Ashraf avvaliga uning yuxkaltasidan o'qotar qurolning o'q-dorisi chiqqani-ni aytishganida hayron bo'ldi. Topilgan buyumni ko'rsatganidan so'ng ehtiyotsizlik ortidan katta xatoga yo'l qo'ygani tushundi. Ammo endi kech edi...

2023-yil 8-iyun kuni ushbu holat jinoyat ishlari bo'yicha Samarqand shahar sudining ochiq sudida ko'rib chiqildi va jangovar o'q-dori olib kirayotgan yo'lovchiga tegishli jazo tayinlandi.

S.ASOMIDDINOV.

“Ayollar daftari”ga kiritilganlarga qanday imtiyozlar berilgan? Xotin-qizlarning bandligiga qanday yo‘nalishlarda ko‘maklashiladi? Necha foizlik stavkada kreditlar beriladi? Quyida ayollarga berilgan 10 ta imtiyoz haqida ma‘lumotlar jamlandi:

BANDLIGI TA‘MINLANADI

Xotin-qizlarning bandligiga quyidagi yo‘nalishlarda ko‘maklashiladi:

- tarmoq va hududiy investitsiya dasturlariga kiritilgan loyihalarda xotin-qizlar uchun yaratilayotgan yangi ish o‘rinlariga ishga joylashtirish;
- mavjud vakansiya va zaxira (kvota) ish o‘rinlariga ishga joylashtirish hamda haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish;
- kooperativlarga jalb etish;
- kasb-hunarga va tadbirkorlikka o‘qitishni tashkil etish, tadbirkorlikka jalb etish, o‘zini o‘zi mustaqil ravishda band qilishni rivojlantirishga doir faoliyatni tashkil etish orqali bandlikka ko‘maklashish.

TADBIRKORLIKKA JALB QILINADI

Tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yishga ko‘maklashish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- o‘quv kurslarini tashkil etish orqali tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish istagini bildirgan va xotin-qizlarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini oshirish hamda biznes loyihalarini tuzishga ko‘maklashadi;
- tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun kredit ajratiladi.

Kreditlar 33 million so‘mgacha miqdorda ajratiladi.

Kreditlarni ilgari olingan kreditlar yoki har qanday boshqa qarzlarni qaytarishga, shaxsiy ehtiyoj uchun avtotransport vositasi sotib olishga, ma‘muriy xarajatlarni to‘lashga, jumladan, avtotransport vositasining ta‘minoti, mebel, aloqa xizmatlari to‘lovi va uyali telefon sotib olishga hamda taqtiqlangan faoliyatlarga ajratishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Kreditlar 14 foizlik stavkada:

- oilaviy tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarga — 3 oydan 6 oygacha bo‘lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga;
- chorvachilik (chetdan keltirilgan naslli qo‘y va echki), baliqchilik va parrandachilik (tuxum yo‘nalishi) uchun — 1 yilgacha bo‘lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga;
- bog‘dorchilik, uzumchilik va limonchilikni tashkil etish, issiqxona, qishloq xo‘jaligi texnikasi va asbob-uskunalarini xarid qilish uchun — 3 yilgacha bo‘lgan imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga ajratiladi.

O‘zini o‘zi band qiladigan xotin-qizlarga ayrim turdagi faoliyatni amalga oshirish (kasanachilik, hunarmandchilik, issiqxona qurish va shu kabilar uchun zaruriy xomashyo, ehtiyot qism hamda qurilish mollari sotib olish) maqsadida 5 million so‘mgacha miqdorda kredit mablag‘lari naqd pulda berilishi mumkin.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni doimiy ish bilan ta‘minlash sharti bilan samaradorligi yuqori va barqaror ish o‘rinlari yaratishga qaratilgan loyihalariga 225 million so‘mdan ortiq, biroq 1 milliard so‘mdan ko‘p bo‘lmagan miqdorda belgilangan tartib asosida kredit ajratilishi mumkin.

Kredit summasining aniq miqdori tadbirkor tomonidan ish bilan ta‘minlanadigan har bir xotin-qiz uchun 33 million so‘mgacha miqdorga mutanosib ravishda belgilanadi.

SUBSIDII AJRATILADI

Xotin-qizlarga asbob-uskuna, mehnat qurollari (tikuvchilik, to‘qimachilik, pazandachilik, soch turmaklash, duradgorlik, chilangarlik, qurilish, qishloq xo‘jaligi (motokultivator, o‘t o‘rish o‘roq mashinasi, payvandlash apparati, o‘simliklarga ishlov berish qurilmasi) apparatlarini xarid qilish uchun 7 million so‘mgacha yoki 10 million so‘mgacha subsidiya ajratiladi.

TOMORQADAN DAROMAD Olishga ko‘maklashiladi

Xotin-qizlarga tomorqadan va dehqonchilikdan daromad manbai sifatida foydalanish uchun

IJTIMOIIY RO‘YXATDAGI

 Huquqiy maslahat

XOTIN-QIZLAR

QANDAY IMTIYOZ VA YORDAMLAR OLISHI MUMKIN?



ko‘maklashish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- yengil konstruksiyali issiqxonalar o‘rnatish;
- parranda, asalari, quyon, baliq va bedana boqishni yo‘lga qo‘yish;
- dehqonchilik bilan shug‘ullanish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish ishlarida har tomonlama ko‘maklashish;
- “Tomorqa xizmati” tashkilotlari va “Dala do‘konlari”ni tashkil etish.

MODDIY YORDAM KO‘RSATILADI

Tasdiqlangan ro‘yxatlar asosida bir martalik moddiy yordam beriladi.

Ushbu bir martalik moddiy yordamni to‘lash uchun bir martalik moddiy yordam berish miqdorlari (summasi) ko‘rsatilgan ro‘yxatni tuman (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limiga taqdim etadi.

Bir martalik moddiy yordam to‘lovlari har oyning 5-27 sanalarida amalga oshiriladi.

Bir martalik moddiy yordam bir kalendar yili davomida bir marotaba beriladi.

“Ayollar daftari”ga kiritilgan I va II guruh nogironligi bo‘lgan xotin-qizlar, shuningdek, qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandi bor yolg‘iz onalarga qo‘shimcha moddiy yordam berish choralari ko‘riladi.

TURARJOY IJARA

KOMPENSATSIYASI TO‘LANADI

Fuqarolar yig‘inlari raislari va xotin-qizlar faollari tomonidan turarjoy uchun ijara kompensatsiyasini to‘lab berish bo‘yicha talabnomalar shakllantiriladi.

Xotin-qizlarga turarjoy ijara kompensatsiyasi mazkur talabnomalar hamda sektorlar rahbarlari va xotin (shahar) oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘ining xulosasi asosida belgilangan tartibda to‘lab beriladi.

Ijtimoiy uy-joylarga ijara huquqi asosida besh yildan ortiq bo‘lmagan muddatga keyinchalik uzaytirish imkoniyati bilan joylashtirilishi yoki homiylar tomonidan mulk huquqi asosida uy-joy bilan ta‘minlanishi mumkin.

UY-JOYI TA‘MIRLANADI

Xotin-qizlarning uy-joyi holati o‘rganiladi va nuqson dalolatnomasi hamda ta‘mirlash yoki qurilish materiallarini olib berish bo‘yicha smeta ishlab chiqilib, “Ayollar daftari” jamg‘armasi Vasiylik kengashiga kiritiladi.

Har bir uy-joyini ta‘mirlash ishlariga bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha miqdorda mablag‘ ajratiladi.

TIBBIY XIZMAT KO‘RSATILADI

Xotin-qizlar, shuningdek, ularning voyaga yetmagan (qaramog‘ida I guruh nogironligi bo‘lgan farzandlarining yoshidan qat‘i nazar) farzandlariga tibbiy yordam ko‘rsatish zarurati

aniqlanganda, ularning salomatligi hududiy birlamchi tibbiy-sanitariya muassasasidan shifokor jalb qilingan holda baholanadi.

O‘rganish natijasiga ko‘ra, tibbiy yordam ko‘rsatish zarurati aniqlanganda, belgilangan tartibda tegishli birlamchi tibbiy-sanitariya muassasasiga yo‘naltiriladi va statsionar yoki ambulator davolanish masalasi hal etiladi.

Tibbiy yordam ko‘rsatiladigan imtiyozli toifaga kiradigan viloyat yoki respublika darajasida davolanishi lozim deb topilgan xotin-qizlar, shuningdek, ularning voyaga yetmagan (qaramog‘ida I guruh nogironligi bo‘lgan farzandlarining yoshidan qat‘i nazar) farzandlari belgilangan tartibda elektron navbatga qo‘yilishi ta‘minlanadi.

Nogironlik belgilari aniq namoyon bo‘lgan bemorlar belgilangan tartibda ko‘rikdan o‘tish uchun tibbiy-mehnat ekspert komissiyalariga yuboriladi.

Shuningdek, dori-darmon olib berish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravarigacha hamda murakkab jarrohlik amaliyotlari uchun bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha miqdordagi xarajatlar to‘lab beriladi.

HUQUQIY VA PSIXOLOGIK

YORDAM KO‘RSATILADI

Xotin-qizlarga sayyor qabullar orqali quyidagilar bo‘yicha huquqiy yordam ko‘rsatiladi:

- prokuratura organlari — huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan xotin-qizlarga amaliy yordam ko‘rsatish, sudga murojaat qilish tartibini tushuntirish, sudga murojaat qilish uchun kerak bo‘ladigan hujjatlarni rasmiylashtirishga ko‘maklashish;
- ichki ishlar organlari — tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarni ushbu tahdidlardan himoya qilish, takroriy zo‘ravonlik sodir etilishining oldini olish maqsadida profilaktik suhbatdan o‘tkazish va zo‘ravonlik sodir etgan shaxsni tuzatish dasturidan o‘tish bo‘yicha vakolatli organga yuborish, himoya orderi talablarining ijrosini nazorat qilish hamda uning talablarini buzib, zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish yuzasidan vakolati doirasida chora ko‘rish;

- adliya organlari — huquqiy maslahatlar berish.
- Bundan tashqari, “Ayollar maslahat kengashi”, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi, uning hududiy va tumanlararo namunalari markazlari, Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi huzuridagi “Xotin-qizlar huquqi, psixologik maslahatxonasi”, ta‘lim muassasalarining malakali psixologlari tomonidan psixologik maslahatlar berib boriladi.

Ko‘rsatilgan barcha imtiyoz va yordamlar “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarga taqdim etiladi.

Orif MUHAMMADIYEV,
viloyat adliya boshqarmasi
bo‘lim boshlig‘i.



Sport maktablarida qachon tartib o‘rnatiladi?

Yoshlar siyosati va sport vazirligi yoshlar siyosatini amalga oshirish va muvofiqlashtirish departamenti direktori Azim Xolmaxmatov rahbarligidagi ishchi guruh sport inshootlarining holati, yotoqxonalar, kutubxona, o‘quv xonalari, tibbiyot xonalari, para sportchilarga yaratilgan sharoitlar, oshxona, ovqatlanish ratsionlari, dori-darmon ta‘minotlari hamda yoshlar yetakchilarining faoliyatini o‘rganib, muammo va kamchiliklar mutaxassis va mas‘ul-lar ishtirokida tahlil qilindi. Viloyatda faoliyat yuritayotgan barcha sport maktablarida “ERP sport” yagona elektron boshqaruv tizimiga tegishli ma‘lumotlarni (sport guruhlari, razryadlar, toifalar, faoliyat yuritayotgan xodimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar) o‘z vaqtida sifatli va to‘liq joylashtirish ishlari yo‘lga qo‘yilmagan. Urgut, Past Darg‘om va Jomboy tumanlaridagi sport maktablarida sport inventarlaridan foydalanish uchun tegishli choralar ko‘rilgan va tibbiyot bo‘limlarida ayrim dori-darmon vositalarining muddati o‘tib ketgan va yaroqsiz holda saqlanib kelinmoqda.

Shuningdek, Urgut tumanidagi 1-sport maktabi suzish basseyni, yuvinish va hojatxonalardan samarali foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmagan. Past Darg‘omdagi 1-sport maktabining suzish basseyni, yuvinish va hojatxonalari esa ta‘mirlab holatga kelib qolgan. Buning ustiga, sport maktabining tuman gaz ta‘minoti bo‘limidan 315 million so‘m qarzi bor.

Jomboy tumani sport maktabida noolimpiya sport turlarini rivojlantirishga e‘tibor qaratilgan, biroq olimpiya sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish uchun yetarli ishlar amalga oshirilmagan.

Toyloq tumanidagi sport maktabi direktorining o‘quv ishlari bo‘yicha o‘rinbosari bilan suhbatlashilganda, yetarli bilim va ko‘nikmaga ega emasligi, vazifasidan kelib chiqib, bajarilishi zarur bo‘lgan haftalik va boshqa ish rejalarini tuzmasdan ishlab kelayotganligi aniqlandi. Bulung‘urda trener-o‘qituvchilarni ishga olish qoniqarsiz. Yoshlar siyosati va sport vazirining buyrug‘iga asosan, sport maktabining asosiy bazasida 25 foiz trener-o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatishi kerak, ammo tumanda bu ko‘rsatkich 17 foizdan oshmaydi.

Viloyatdagi mahalla yoshlari yetakchilari faoliyati o‘rganilganda yoshlar “yashil”, “sariq”, “qizil” toifalarga ajratilgani, og‘ir toifadagi yoshlar bilan

ishlash maqsadida tuman va shahar mas‘ul rahbarlari birlashtirilgan ma‘lum bo‘ldi. Shuningdek, yoshlarning muammolari aniqlanib, ularga amaliy yordam ko‘rsatilgan, o‘rta toifadagi ishsiz yoshlar bilan ishlash maqsadida bandlik dasturlari ham ishlab chiqilgan.

- Markazlarga o‘quvchi-sportchilar qabul jarayonlarini shaffof o‘tkazish uchun elektron platforma mexanizmini ishlab chiqish va imtihon jarayonlariga viloyatlardan mutaxassislar jalb qilish zarur, - dedi A.Xolmaxmatov. – Shuningdek, yoshlar siyosati va sport vazirligi qoshida sport muassasalarini xalqaro standartlarga javob beradigan yagona sport inventarlari va jihozlari bilan ta‘minlaydigan alohida ta‘minotchi tashkilotni tashkil etish, sport ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan tibbiy bo‘lim faoliyatini soddalashtirish va jonlantirish zarur.

Yig‘ilishda Yoshlar siyosati va sport vazirligining tuman (shahar), mahalla tizimidagi mas‘ul xodimlarining kasbiy malakasini doimiy oshirib turuvchi o‘quv-uslubiy markaz faoliyatini tashkil qilish, “og‘ir” toifadagi yoshlar bilan ishlash, “Bandlik dasturi”ning bajari-lishini qat‘iy nazoratga olish hamda yoshlarni rasmiy sektorga o‘tkazish bo‘yicha tavsia va takliflar ishlab chiqish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

“URGUT SAVDO KOMPLEKSI” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischilari diqqatiga!

Urgut tumanidagi “URGUT SAVDO KOMPLEKSI” mas’uliyati cheklangan jamiyati ta’sischilarining navbatdan tashqari umumiy yig’ilishi 2023-yil 21-avgust kuni soat 10:00 da jamiyat ma’muriy binosida o‘tkaziladi.

KUN TARTIBIDA:

- O‘zbekiston Respublikasining “Korporativ boshqaruv tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuniga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ-101-son qarori talablaridan kelib chiqib, davlat

ishtirokidagi korxonalarning ta’sis va ichki me’yoriy hujjatlarini qayd etilgan qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirish, jumladan, ularga tegishli o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish masalasi;

- Jamiyatning “Ijroiya organining rahbarlik lavozimlariga tanlov o‘tkazish va nomzodlarni saralash tartibi to‘g‘risida”gi nizomini tasdiqlash.

Yig‘ilishda qatnashish uchun o‘zingiz yoki o‘z ishonchli vakilangizni ishonchnoma orqali yuborishingiz so‘raladi.

**“Urgut Savdo Kompleksi”
MCHJ ma’muriyati.**

DA‘VOLAR BO‘LSA!

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Rahimova Komila Faxriyeva notarial idorasida marhum Isroilova Miyassarga (2018-yil 17-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Rahimova Komila Faxriyeva notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Mustafakulov Baxtiyor Djuraevichga (2021-yil 18-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasida marhum Mamadaliyeva Muxaramga (2018-yil 3-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Norqulov Umid Rustamovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Turkiston ko‘chasi, 62-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Hotamov Ergashga (2004-yil 22-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 200-uy, 3-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Ravshanova Barno Ne‘matovna-ga (2022-yil 9-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Vafayev Abrorga (2019-yil 7-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

Birinchi voqea. Qishloq bozori. Tong otmasdan turib, sigirning hali sudtan endigina ayrilgan buzog'ini zarurat uchun mol bozorga olib chiqqan Shojalilni darvozadan kirmasdan oq devday keladigan Norqobil qarshi oldi. Shojalil xotinining "Yana dalloilga arzon-garovga berib qo'y-mang, haqiqiy xaridorga soting", degan so'zlarini esladi-da, Norqobilni chetlab o'tmoqchi bo'ldi. Ammo Norqobil ham anoyi emas edi. U Shojalilning qo'lidan mahkam ushladi-da, bor kuchi bilan silkita boshladi. "Barakasi-ni bersin, bor, baraka deng...". Xullas, bechora buzoqning taqdiri bozor darvozasi-dan kirmasdan oq hal bo'ldi. U bir million so'mga sotildi. Shojalil pullarni sanab, bemaol hamyoniga joyladi-da, sekin ichkariga kirdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, hozir-gina sotgan buzog'ini Norqobil boshqa xaridorga naq 1 million 200 ming so'mga pullayotgandi...

Ikkinchi voqea. Ishsiz yurgan jiyanimni ishga joylashtirmoqchi bo'lib, dong'i ketgan qurilish tashkilotlaridan birining rahbariga iltimos qildim. Chunki kasbim taqozosiga ko'ra, u bilan matbuot anjumanlarida ko'p marta uchrash-gandim. U kishi har gal qurilishda ish ko'pligini, ish topolmayotgan yoshlar bemalol murojaat qilishini ta'kidlardi. Mulozim iltimosimni erinchoqlik bilan eshitarkan, "Jiyaningizni ertalab oldim-ga yuboring", dedi. Jiyanim Rossiyada ishlagan professional shofyor edi. Ikki kundan so'ng jiyani uyga kelib, uni ishga olishmaganini aytdi. Jiyanning aytishicha, hujjatlariga bironta e'tiroz bildirishmabdi, faqat "Yoshingiz bizga to'g'ri kelmay-di", deyishibdi. "Tog'a, siz aytgan hayot faqat kitobda, kinolarda bo'ladi. Qo'ying, o'vora bo'lmang, hammasi borib-borib yana pulga taqaladi", dedi u. Men yana o'sha tashkilot rahbari bilan bog'landim. U kishi "Bizda ishga kirish uchun maxsus komissiya bor. Jiyaningizni shu komissiyaga yuborgandim. Ular nima degan bo'lsa, shu-da", dedi. Oradan bir hafta o'tib, jiyanim o'sha tashkilotda ishlayotgan bir tanishining yordamida 500 dollar evaziga ishga joylashganini aytdi.

O'Z O'G'LIDAN YO'LKIRA OLGAN OTA

Gap nima haqida borayotganini sezgandirsiz. Ha, aynan "uchinchi odam" - dallollar haqida. Sirasini aytganda, tirikchilikning bunday ko'rinishi ilgari ham bor edi-yu, ammo bugungidagidek keng "ommalashib" ketmagandi. Ommalashgani ham bir tomon-u, bu "kasb"ni tanlaganlar-ni aksariyati pul uchun hatto yaqinlarini ham sotib yuborayotgani ikkinchi tomon. Xo'sh, nimaga shunday bo'lyapti? Nahotki, odamlarda mehr, oqibat, diyonat, imyon degan tushunchalar yo'qolib borayotgan bo'lsa?

Axir bir paytlar bir burda nonini qo'shni-si bilan baham ko'rgan, o'nlab g'irt be-gona yetimlarni bag'riga olgan shu xalq emasmi? Xo'sh, endi-chi?

- Eh, nimasini aytasiz, hatto ota-bola orasida ham hisob-kitob bo'lyapti, - deydi Payariqdagi Ernazarqo'rg'on mahallasida yashovchi otaxonlardan biri Salohiddin Nosiroy. - Yaqinda bir qarindoshim yuk mashinasida daladan samon olib ke-lib bergani uchun o'zining o'g'lidani naq 200 ming so'm pul talab qilibdi. O'g'li 100 ming so'm beraman desa, ko'nmab-di. Mana, sizga ota-bola o'rtasidagi mehr-oqibat!

UZOQQA BORMAGAN "ISHBILARMONLIK"

Qishloqda Gulsanam degan fer-mer ayol bor edi. Davlatning kattagina miqdordagi mablag'ini talon-toraj qil-gani uchun fermerlikdan ketib, har joyda yurardi. Yaqinda o'sha ayol qishloqdagi

ishsiz xotin-qizlarni ish bilan ta'min-layotganini eshitib qoldim. "Xudo insof beribdi-da", deb qo'ydim. Ammo keyin surishtirib ko'rsam, u yirik-yirik fermer-lar bilan kelishib, ularning 10-20 gektar yerdagi ekinlarini o'tash, ularga ishlov berish, mevalarni terish bo'yicha shart-noma tuzarkan va bu ishga



UCHINCHI ODAM

qishloqdagi xotin-xalajni jalb qilarkan. Aytaylik, bitta maydondagi ekinlarni o'toq qilish uchun bu "brigadir xonim" fermerdan 10 million so'm olsa, shu pulning 6 millionini ayollarga berar, qolganini esa dallolli-gi uchun cho'ntakka urarkan.

Hayot sinovlari oldida o'z qolgan sodda ayollarning topgan pullari evaziga hamyonini qappaytirayotgan Gulsanam-ni dang'illama uchastkasi yaqinda elektr tarmog'idagi qisqa tutashuv tufayli yonib, kulga aylanibdi. Chunki ochko'z ayol hatto elektr tarmog'iga ham noqonuniy ulanib olgan ekan.

"GASTARBAYTER"LIKNING OQIBATI

Qo'shni qishloqlardan birida yashovchi Eshmirza 50 yoshida insult tufayli olamdan o'tdi. Uning nimaga insult olgani haqida turli gap-so'zlar oraladi.

Odamlarning aytishicha, Eshmirza Rossiyadagi katta shaharlardan birida qurilishda ishlagan ekan. Aniqlirog'i, u yerga o'zining aka-ukalaridan tashqari, qo'shni qishloqlardan ham ishsiz odamlar-ni olib borib ishlatgan dalol ekan. Qurilish boshlig'idani olgan pulining yarmini qo'l ostidagilarga bo'lib berib, qolganini o'zi-ni ning cho'ntagiga urarkan. Qizig'i, ertadan qorong'i kechgacha loy, g'isht, sement ko'targanlarning orasida uning o'z tug'ish-gan akasi ham bo'lgan.

Eshmirzaning qing'irligini sezib qolgan yigitlar undan halol ishlagan pullarini talab qilishgan. Eshmirza pullarni uyga jo'natib yuborganini, qishloqqa qaytganidan so'ng ularga berishini aytgan. Ammo u va'dasida turmagan. Natijada akasi boshchiligidagi aldangan yoshlar agarda Eshmirza ular-ni ning haqini bermasa, uning 2 nafar voyaga yetmagan o'g'illarini o'ldirish bilan qo'rqit-adi.

Eshmirza ikki o't orasida qoladi. Oqi-batda uning qon bosimi ko'tarilib, insultga yo'liqadi.

"MEN YOMON ISH QILAYOTGANIM YO'Q..."

Bundan qariyb 20 yillar ilgari, "Samar-qand" telekanalida ishlab yurgan kezlirim viloyat ichki ishlar boshqarmasi xodimlari bilan hamkorlikda tungi reydlardan birida qatnashishga to'g'ri keldi. Tezkor guruh boshlig'ining aytishicha, shahardagi ko'p qavatli uylardan birida yashirin fohishaxo-na ochildgan ekan.

Xodimlarning sa'y-harakatlari tufayli tez orada manzilni aniqlab, ikkinchi qa-vatda joylashgan xonadonga kirib bordik. Xonadon ichidagi 4 ta alohida xonada 17-22 yoshlar orasidagi qizlar mijozlarning ko'nglini ovlash bilan band edi. Qizig'i, bu ayollar ko'shmachi opalarini himoya qilib gapirishdi.

- Bizga boshqa ish topib beringlar, bo'lmasa, bola-chaqamizni boqinglar, ko'raylik-chi, - dedi ulardan biri. - Opa bizlarga ish berdi, boshpana bilan ta'min-ladi.

Mulohaza uchun mavzu

Xonadon sohibasi, 50 yoshlar atro-fidagi ayol ichki ishlar xodimlariga o'ta bepisandlik bilan muomala qildi.

- Xo'sh, nima bo'пти, shu ish bi-lan anchadan beri shug'ullanaman.

Marhamat, qonun-ni buzgan bo'lsam, sudga beringlar. Men yomon ish qilayot-ganim yo'q. Nonini topolmay, ko'chada qolgan qiz-juvonlarga boshpana, ovqat, ish haqi beryapman. Yo noto'g'rimi?

Ayolning do'q-po'pisalari-ga qaramay, tegishli hujjatlarni rasmiylash-tirib, 6 nafar juvonni teri-tanosil kasal-liklari shifoxonasiga olib ketishdi. Oradan ikki hafta o'tib, o'sha qo'shmachi ayol sud-da jarima bilan qutulib qol-ganini eshitdim.

"TIRIKCHILIK-DA"

Endi shu holatlarni bir tahlil qilib ko'raylik. Ko'pincha tirikchilikning qiyinligi, zamonning "aynib ketayotgani"dan nolib qola-miz. Ammo pul topish uchun inson zoti qaysi ko'chalarga kirib chiqa-yotgani, qanaqa noma'qul ishlar-

Muzeylarga 514 ming sayyoh tashrifi kuzatilgan

Yurtimizga, xususan, Samarqandga kelgan xorijlik mehmon borki, shahrimizdagi qadimiy obidalarini ko'rish bilan birga, noyob tarixiy ashyolarga to'la muzeylar, undagi nodir osori-atiqalarga qiziqadi.

Samarqand davlat muzey-qo'riq-xonasi mutaxassislarning aytishi-cha, joriy yilning dastlabki olti oyida muzey-qo'riqxona tasarrufidagi muzey va madaniy meros obyektlariga 514 ming sayyoh tashrifi kuzatilgan. Ular-ni 149 ming nafari xorijlik, 365 ming nafari mahalliy sayyohlar.

- Muzeylar odamlar bilan fayzli, - dey-di muzey-qo'riqxona ilmiy xodimi Sham-siddin Rustamov. - Ayniqsa, sayyohlik mavsumida xorijlik va mahalliy turistlar-ni tashrifi ortadi. Davlat muzeylarida har oyning birinchi yakshanbasi "Ochiq eshiklar kuni" etib belgilangan. Shu kuni barcha uchun kirish bepul. Shuningdek, yoshlar va ijtimoiy daftarlarda turuvchi fuqarolar uchun ham imtiyozlar mav-jud. Yil boshidan buyon 130 ming nafar o'quvchi-yoshlar muzeyga kelgan bo'lsa, 86 ming nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar bepul tomosha qilish imkon-i-yatiga ega bo'ldi.

Muzeylar faqatgina madaniy qadri-yatlar namoyishigina bo'lib qolmasdan, ular o'tmish sayohatiga chorlovchi yo'ldi yulduzidir. Sayyohlar ham ana shu buyuk o'tmishga bilvosita sayohat qilayotganini ta'kidlaydi.

- Muzeyga ko'pincha dam olish kunlari farzandlarimni olib kelaman, - deydi bulung'urlik tarix fani o'qituv-



chisi Bahrom Mahmudov. - Yoshlarni ko'proq o'yingoh va ko'ngilochar dam olish maskanlari qiziqtiradi. Bunday joy-larga ham vaqti-vaqti bilan borish ke-rak. Ammo yoshlar qalbida yurtga mu-habbat, o'z tarixiga hurmat uyg'otishda buyuk ajdodlarimiz qadamjolari, ular-dan qolgan madaniy meros, xususan, muzeylarning muhim o'rni bor.

Ta'kidlash lozim, muzeyga keluv-chilarning soni qish faslining sovuq yanvar-fevral oylari eng kam (30 ming) va yozning issiq kunlari (iyunda 70 ming)da ko'p bo'ladi. Aprelda o'rta-cha 105 ming va may oyida eng yuqori ko'rsatkich - 180 ming nafargacha tarix ishqibozlari ushbu madaniy mas-kanlarga tashrif buyurgan.

S.MARDIYEV.

Samarqanddagi sport-ta'lim muassasalarida yangi yo'nalishlar ochildi

Bugungi kunda viloyatda 30 ta sport-ta'lim muas-sasasi faoliyat yuritmoqda. Jumladan, Samarqand olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, Toyloq yakkakurash va suv sport turlariga tayyorlash olimpiya markazi, sportning eshak eshish turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya xazinalari respublika bolalar o'smirlar sport maktabi, 4 ta ix-tisoslashtirilgan sport maktabi, 21 ta sport maktabi hamda 1 ta futbol mahorat maktabi (akademiya)si, "Dinamo" PFK futbol maktabi mavjud.



ga qo'l urayotgani haqida o'ylab ham o'tirmaymiz. Yana ko'pincha shunday holatlarga ko'z yumib o'tib ketamiz. O'zimizni ovutib, "Tirik-chilik-da", deb qo'yamiz.

Nazarimda bunday yumushlarni tirikchilik, degan nom bilan oqlab bo'lmaydi. Chunki birovning haqiga ko'z olaytirish, harom yo'lga yu-rish shariatda ham qoralab kelingan. Qolaversa, farzandingizga nafaqat to'g'ri tarbiya berish, balki unga halol luqma yedirish ham bolaning kelajak hayotiga ta'sir ko'rsatishi isbotlangan haqiqat.

Inson tabiati g'alati. Tarbiya, to'g'ri-lik, halollik, rostgo'ylik haqida qancha ko'p va xo'b eshitib, o'z ko'zi bilan ko'rmasin, baribir boshi devorga uril-maguncha o'zining bilganidan qolmaydi. "Menga nima" qabilida yashayveradi. Ehtimol, uning eng katta fojiasi ham mana shundadir. Ammo ne bo'lganda ham, o'sha bozorda, ko'chada, hayot chorrahalarida doim to'qnash kelayot-ganimiz - shoir aytganidek, uchinchi odamlarga insof bersin.

Yormamat RUSTAMOV.

Viloyat yoshlar siyosati va sport boshqarmasi sport ta'lim muassa-salari bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi Bahodir Berdiqulovning ma'lum qilishicha, 2022-2023-o'quv yilida viloyatdagi sport-ta'lim muassasalarida o'nga yaqin yangi yo'nalishlar ochildi.

Jumladan, sportning o'yin turlari va yengil atletika bo'yicha ixti-soslashtirilgan sport maktabida chim ustida xokkey, shaybali xok-key, yakka kurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabida kamondan otish, Samarqand shahar 1-sport maktabida chim ustida xokkey, basketbol, Samarqand tumani 1-sport maktabida qilichbozlik, kamondan otish, chim ustida xokkey, Payariq tumani 2-sport makta-bida regbi hamda Urgut tumani 1-sport maktabida qoyani zabt etish bo'limlari tashkil etilgan.

Shuningdek, paralimpiya sport turlari bo'yicha suv sport turlariga ix-tisoslashtirilgan sport maktabida parasuzish, Samarqand shahar 1-sport maktabida paraqilichbozlik, Samarqand shahar 2-sport maktabida parayengil atletika, Kattaqo'rg'on shahar sport maktabida parashaxmat, Bulung'ur sport maktabida parataekvondo, Jomboy tumani sport mak-tabida paradyudo, parastol tennis, parayengil atletika, Past Darg'om tumani 1-sport maktabida parabadminton, Paxtachi tumani sport mak-tabida parayengil atletika, parataekvondo, Samarqand tumani 2-sport maktabida paradyudo, Toyloq tumani sport maktabida parayengil atletika, Payariq tumanidagi 1- va 2-sport maktablarida parataekvondo, paravelosport, paraqilichbozlik yo'nalishlari ochildi.

Yangi tashkil etilgan bo'limlarda sportchilarning shug'ullanishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan va sport maktablarida xotin-qi-zlar uchun alohida fitness klublar hamda sport maktablarida ayollar sog'lomlashtirish guruhlari faoliyat ko'rsatmoqda.

F.RO'ZIBOYEV.

Urgutlik qizlar "Vazir kubogi" uchun bellashadi



Voleybol bo'yicha 17 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasida Ichki ish-lar vaziri kubogi musobaqasining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Musobaqaning ochilish marosimida viloyat IIB boshlig'i o'rinbosari polkovnik Faxriddin Rahmatov qatnashchilarga muvaffaqiyat tilagach, tuman va shahar bosqichlarida g'olib bo'lgan ishtirokchi-lar respublika yo'llanmasi uchun bahsga kirishdilar.

Murosasiz kechgan bellashuvlar-ni final bahsida Urgut va Nurobod tumanidan kelgan qizlar jamoa-

si kuch sinashdi va urgutlik qizlar g'olib bo'lib, respublika yo'llanmasini qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rin nuro-bodlik yoshlarga nasib etgan bo'lsa, Kattaqo'rg'on tumani qizlari uchinchi o'rinni egalladi.

G'oliblarga tashkilotchilar tomonidan kubok, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

Nazokat HOTAMOVA.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 362 nusxada chop etildi. Buyurtma 397. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda